



## TURKMAN XALQINING MILLIY YETAKCHISI SAMARQANDGA KELDI



**Turkman xalqining milliy yetakchisi,  
Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi  
Gurbanguli Berdimuhamedov 23 aprel  
kuni tashrif bilan O'zbekistonga keldi.**

Tantanal ravishda ikki mamlakat bayroqlari bilan  
bezatilgan Samarqand xalqaro aeroportida oliy  
martabali mehmonni davlatimiz rahbari kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, ikki tomonlama  
uchrashuv o'tkazish va madaniy tadbirlarda birgalik-  
da ishtirok etish ko'zda tutilgan.  
Muzokaralarda O'zbekiston-Turkmaniston do'stlik,  
yaxshi qo'shnihilik va strategik sheriklik munosa-  
batlarini yanada mustahkamlash masalalari ko'rib  
chiqildi.

President.uz

### Prezident farmoniga ko'ra

## Ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini aholi baholaydi

Joriy yilning 21-aprel kuni Prezident tomonidan korrupsiyaga qarshi  
kurashish yo'nalishida ikki hujjat - "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi-  
ni yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini  
samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon hamda  
"Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat  
bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini  
oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, iqtisodiyot-  
da korrupsiyaviy omillarning oldini  
olish maqsadida davlat xaridlarida  
sotib olinadigan tovar va xizmat-  
lar narxi hamda uning o'rtacha  
bozor narxi o'rtasidagi tafovut-  
ning eng ko'p yo'l qo'yiladigan  
chegarasidan chetga chiqqan  
holda xaridlarni amalga oshirgan  
mansabdor shaxslar javobgarlikka  
tortilishi belgilandi.

2025-yilning 1-iyulidan yirik in-  
vestitsiya loyihalarida korrupsiyaga  
qarshi xalqaro standartlar hamda  
yirik auksion shartlarini raqobatbar-  
doshlik ekspertizasi o'tkazish  
boshlanadi. "Shaffof qurilish" milliy  
axborot tizimi qamrovi yanada osh-  
irilish, bosqichma-bosqich xalqaro  
tashkilotlar ishtirokidagi loyihalarga  
joriy qilinadi.

2025-yil yakunigacha xalqaro  
tender obyektlari bo'yicha sub-

podratchilar "Shaffof qurilish"  
tizimi orqali jalb qilinishi, qiymati 2  
million AQSh dollarigacha bo'lgan  
xalqaro moliya tashkilotlari hiso-  
bidan moliyalashtiriladigan mahalliy  
tenderlar "Shaffof qurilish" tizimida  
o'tkazilishi hamda xalqaro tenderlar  
bo'yicha jalb qilingan chet el pudrat  
tashkilotlari shartnoma qiymatining  
kamida 60 foizini o'z kuchi bilan  
bajarish tartibi joriy etiladi.

2026-yil 1-yanvargacha vazirlik  
va idoralar, mahalliy hokimliklar  
tomonidan ko'rsatiladigan barcha  
davlat xizmatlarini tuman (shahar)  
kesimida aholining o'zi baholay-  
digan tizim joriy etiladi. Bunda aholi  
tomonidan "qoniqarsiz" deb ba-  
holangan vazirlik, idora rahbarlari  
hamda tuman (shahar) hokimlari  
shaxsiy javobgarligi belgilanadi.

Aholining kundalik hayotida  
uchraydigan savollariga mobil tele-

fon orqali sodda va qulay shaklda  
javob olish imkoniyatini beradigan  
sun'iy intellekt asosidagi onlayn  
platforma ishga tushiriladi.

Qarorga ko'ra, davlat organlari  
va tashkilotlari, ustav fondida dav-  
lat ulushi 50 foiz va undan ortiq  
bo'lgan xo'jalik jamiyatlaridagi  
korrupsiyaga qarshi ichki nazorat  
bo'linmalarining ustuvor vazifalari  
belgilandi. Shuningdek, Korrupsi-  
yaga qarshi ichki nazorat bo'lin-  
malarini tashkil etishning minimal  
mezonlari tasdiqlandi. Ular o'z  
faoliyatida bevosita tashkilotning  
birinchi rahbariga bo'yusnadi va  
uning oldida hisobdor bo'ladi.

Korrupsiyaga qarshi kura-  
shish agentligi davlat idoralari  
va tashkilotlarining korrupsiyaga  
qarshi ichki nazorat bo'linma-  
lari faoliyatini muvofiqlashtirish  
va uslubiy ta'minlash, ularning  
xodimlarini stajirovka va attestatsi-  
yadan o'tkazish hamda malakasini  
oshirish bo'yicha maxsus vakolatli  
organ etib belgilandi.

2025-yil 1-iyulgacha "E-anticor-  
uz"da ichki nazorat bo'linmalari  
rahbarlari va xodimlarining elek-  
tron reestrini yuritish, hisobotni  
elektron taqdim etish, anonim  
so'rovnomalar o'tkazib e'lon qilish  
imkonini beruvchi elektron modul  
ishga tushiriladi.

raqamlashtirish;  
xususiy sektor tomonidan amalga oshiriladigan  
nazorat tizimi mexanizmlarini shakllantirish.  
Shuningdek, farmonga asosan 2025-yil 1-maydan:  
tadbirkor va qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi  
sohasida nazorat qilish hududiy inspeksiyalari o'rtas-  
ida shartnoma tuzilgan bo'lsa, tadbirkorlarning  
qurilish obyektlarida qisqa muddatli davlat qurilish  
nazorati tadbirlari shartnoma shartlari doirasida  
amalga oshiriladi va "Yagona davlat nazorati" ax-  
borot tizimida ro'yxatdan o'tkazilmaydi.  
Inspeksiyaga xo'jalik yurituvchi subyektlarning  
moliyalashtirish manbalaridan qat'i nazar, moli-  
ya-xo'jalik faoliyatiga aralashish qat'iy qat'iy taqiqlanadi.

## Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi mustaqil respublika ijro etuvchi hokimiyat organi bo'ladi

Prezidentimizning 2025-yil 14-apreldagi "Qurilish  
va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida davlat nazo-  
ratini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risi-  
da"gi farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko'ra, quyidagilar qurilish va uy-joy  
kommunal xo'jaligi sohasida davlat nazoratini tako-  
millashtirishning asosiy maqsadlari etib belgilandi:  
qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida  
nazorat qilish inspeksiyasini mustaqil respublika ijro  
etuvchi hokimiyat organi sifatida shakllantirish;  
qurilish, ko'p kvartirali uylarni boshqarish ham-  
da ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqa-  
rib yuborish sohasida nazorat funksiyalarini to'liq

### "Обод хонадон – обод кўча – обод маҳалла"



Давлатимиз раҳбари топшириғига асосан бутун мамлакатимиз бўйлаб  
энг чекка ва олис ҳудудларда "Обод хонадон – обод кўча – обод  
маҳалла" мезонларини жорий этиш бўйича кенг қўламли бунёдкорлик ва  
ободонлаштириш ишлари олиб борилмоқда. Уч ой илгари вилоятимизда  
танланган 4 та "қизил" тоифадаги маҳаллада муаммоларни бартараф  
этиш бўйича "Йўл хариталари" ишлаб чиқилган эди. Жумладан, Жомбой  
тумани марказидан 30 километр олисда жойлашган Сарикипчоқ  
маҳалласида ҳам дастур бўйича ишлар олиб борилмоқда.

## САРИҚИПЧОҚда БОШЛАНГАН ИШЛАР

### нега ўлда-жўлда?

Маҳалла ҳудудидagi Еттируғ, Сарикипчоқ ва  
Сўхмон қишлоқларида жойлашган 610 та хонадон-  
да 3200 дан зиёд аҳоли истиқомат қилади. 11 мил-  
лиард сўм маблағ сарфланиб амалга оширилиши  
кутилган дастурга асосан ҳудудда 13,5 километр  
масофадаги тупроқ йўллар шағаллаштирилиб, 26  
та кўча ободонлаштирилиши кўзда тутилган. Ўн та  
хонадон эса намунали ҳовлига айланди.

- Маҳалла инфратузилмасини яхшилаш иш-  
лари дастурда кўрсатилгандек жорий йилнинг март  
ойи охирида якунланиши керак эди, - дейди Са-  
рикипчоқ маҳалласи раиси Сирожиддин Эшбеков.  
- Аммо турли сабаблар билан бу амалга ошмай  
қолди. Тўғри, ички кўчалар шағаллаштирилди.  
Юзта эски симёғоч ўрнига 125 дона темир-бетон  
устун ўрнатилди. Битта сув иншооти таъмирланди,  
2 километр масофага интернет тармоғи тортилди,  
2,7 километр пидедалар йўлагининг асоси тайёр-  
ланди. Йўлларга шағал олиб келиш ҳашар йўли  
билан амалга оширилмоқда. Аҳоли машиналар  
учун ёқилғи олиб берапти. Ҳозирда яна 3 километр  
ички кўчамизга шағал тўкилиши зарур. Ҳисоблаб  
кўрсак, 120 машина тош керак бўлар экан, ёқилғи  
топишга қийналяпмиз.



бинолар куриш ҳам кўзда тутилган, - дейди мактаб  
хўжалик ишлари мудирини Обид Ортиқов. - Кичик-  
рок спорт зали ва фаоллар залимиз бор эди. Аммо  
зилзилалар сабабли иккаласининг ҳам деворлари  
дарз кетиб, бир бирига суюниб қолган. Унинг ичи-  
га кириш тугул ҳатто ёнига ҳам бориб бўлмайди,  
қулаб кетиши мумкин.

Сарикипчоқ оилавий шифокорлик пунктида  
ҳам маблағ йўқлиги сабабли таъмирлаш ишлари  
бошлангани йўқ.

- Маҳалла аҳолисининг турмуш тарзини яхши-  
лаш, қурилиш-таъмирлаш ишларини ташкиллаш-  
тириш мақсадида тумандаги 26 та ташкилот  
раҳбарлари бириктирилган, - дейди туман ҳокимлиги  
бош мутахассиси Шахзод Сувонов. - Улар ўзларига  
ажратилган кўчага келиб, аҳолини ҳашар йўли бил-  
лан кўчаларни тозалаш, йўлларни шағаллаштириб,  
асфальт билан қоплаш, пидедалар йўлаги, бетон  
ариқлар куриш, тунги чиқроқлар ўрнатиш каби  
ишларга бош-қош бўлишмоқда.

Бироқ ҳамма кўчаларда ҳам ободонлашти-  
риш ва кўкаламзорлаштириш ишлари кўнгилда-  
гидек олиб борилмаётган кўринади. Маҳаллада  
бўлганимизда ҳозирча фақат 8 та ташкилот  
раҳбарининг ўзига бириктирилган кўчаларда олиб  
борилган ишлари юзасидан ҳисоботлари билан  
танишидик. Туман кадастр идораси туман ҳу-  
дий электр тармоқлари ва табиий газ идоралари,  
туман деҳқон бозори маъмурияти, туман қишлоқ  
хўжалиги бўлими раҳбарлари ўз зиммасига олган  
вазифани масъулият билан бажармаётганлиги  
кўриниб турибди. Улар орасида ҳали бирор марта  
ўзларига ажратилган кўчага келиб ўрганмаганла-  
ри ҳам бор экан.



Бироқ 2,4 километр ички йўлларни асфальтлаш,  
2 та янги трансформатор ўрнатиш ва 1,5 километр  
ёқилғи тармоқ тортиш ишлари ортага сурилмоқда.  
Битта янги сув иншооти қурилиши, 7,3 километр  
ичимлик сув тармоғи ҳам тортилиши керак эди.  
Лекин бу ишлар ҳам бошланмади. Туман ободон-  
лаштириш бошқармаси томонидан 1 километр са-  
ломатлик йўлаги ва 20 та тунги ёритиш чиқроқлари  
ўрнатиш ҳам ўлда-жўлда қолиб кетган.

Қурилишига 460 миллион сўм сарфлаш режа-  
лаштирилган янги маҳалла маркази биносининг  
фақатгина пойдевори ташланибди, холос. Бунёд-  
корлик ишларини зиммасига олган "Жомбой махсус  
таъмирлаш" МЧЖ томонидан 15 минг дона пишиқ  
ғишт олиб келинган. Ишчилар йўқлиги учун қури-  
лиш ишлари тўхтаб қолган.

Сўхмон қишлоғи аҳолиси қишлоқни кесиб ўтган  
Булунғур аригининг устидаги қўлбола кўприқдан  
қатнайди.

- Ариқнинг нариги томонида 15 та ҳовли бор,  
- дейди маҳалла оқсоқолларидан бири. - Ёгингар-  
чилик кунлари фарзандларимизнинг шу кўприқдан  
ўтиб, мактабга боришлари анча қийин. Шу сабаб-  
ли янги кўприк куриш дастурга киритилган эди.  
Бироқ ҳануз иш бошланмади.

Маҳалла аҳолининг боғча есидаги 375 нафар  
фарзанди бўлиб, улар 3 та хусусий боғчага сиғ-  
майди. Кўпчилик боласини кўшни Булунғур тум-  
нидаги хусусий боғчаларга беришади. 320 ўринли  
10-умумтаълим мактабида 600 га яқин ўқувчи  
сабоқ олади. Ўқув хоналари етишмаслиги сабаб  
ўқувчи 2 навбатда ташкил этилган. Мактабнинг  
эски биносини мактабга таълим ташкилотига  
айлантиришга қарор қилинган эди. Бироқ маблағ  
ажратилмаганлиги туфайли қурилиш-таъмирлаш  
ишлари бошланмаган.

- Дастурда мактабимиз учун юз ўринли кўшимча



"Юртинг обод - элинг обод", дейди халқимиз.  
Сарикипчоқ ички имкониятлар ҳисобидан ҳар  
жабҳада намунавий, обод ва гўзал ҳудудга айлан-  
тирилиши лозим. Бунинг учун бу ишга масъул ҳар  
бир раҳбар аввало, халқни рози қилиш, инсоннинг  
қадр-қимматини ошириш йўлида олиб борилаётган  
ишлар ислохотларининг энг олий мақсади эканлиги-  
ни англаши керак.

Дилмурод ТЎХТАЕВ,  
"Зарафшон" муҳбири.



**O'quvchilari turli tanlovlarda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan maktabning muvaffaqiyat siri nimada deb o'ylaysiz? To'g'ri, o'qituvchilar bilimli, tajribali, maktab direktori fidoyi o'qituvchilar jamoasini yig'a olgan bo'lsa va ota-onalar ham farzandi kelajagiga befarq qaramasa, albatta, bunday maktab ilmga chanqoq, zukko yoshlarni tarbiyalaydi. Narpay tumanida bo'lib, tumandagi eng namunal maktablar faoliyati bilan tanishdik.**

Tumandagi 17-umumiy o'rta ta'lim maktabi qator yillardan beri ilg'or maktablar safidan joy egallab kelmoqda. 2018-yil ilk bor o'tkazilgan "Yosh kitobxon" tanlovining respublika bosqichida maktabning 10-sinf o'quvchisi Mohiniso Shomurodova o'lib bo'lib, Prezident sovg'asi - "Spark" avtomashinasi bilan taqdirlangan. Maktab o'quvchilaridan tashkil topgan "Tafakkur" jamoasi "Yoshlar va qonun", "Mening huquq va majburiyatlarim", "Parlament bilimdoni" respublika ko'rik-tanlovlari ishtirok etib, ikki marta faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan.

- O'tgan yilgi maktab bitiruvchilarining barchasi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirdi, - deydi maktab direktori Marhabo Jabborova. - Sababi o'quvchilar darsdan keyin maktabda qo'shimcha darslarga qatnashadi. Maktabda fan to'garaklaridan tashqari, pullik kurslar ham tashkil qilingan. Fan to'garaklarini milliy va xalqaro sertifikatga ega o'qituvchilar o'tadi. 14 nafar o'qituvchi xalqaro, 10 nafar o'z fani bo'yicha milliy sertifikatni qo'lga kiritgan. Ularning 10 nafari 50 foizlik ustama puli oladi. Bu yilgi bitiruvchilarimizning ham natijasi yomon emas, hozirga qadar 6 nafar o'quvchimiz turli fanlardan milliy va xalqaro sertifikatlar sohibi bo'ldi. O'quv yili tugaguniga qadar bu raqam yana oshadi.

- Maktabimiz yuz yillik tarixga ega, - deydi maktab direktori. - Dastlab 1922-yilda boyning ikki qavatli uyi maktab vazifasini o'tagan. Atrofda boshqa maktab yo'qligi uchun Paxtachi, Ziyovuddin, Kattaqo'rg'on dan bolalar kelib, shu maktabda ta'lim olgan. Keyinchalik davlat arbobi, iqtisod fanlari nomzodi, mehnat qahramoni Bektosh Rahimov maktabni qaytadan qurib bergan.

Maktab 1050 o'rinli bo'lib, bugungi kunda 1130 nafar o'quvchi ta'lim olyapti. Ushbu ta'lim dargohi PISA xalqaro baholash dasturi bo'yicha tayanch maktab hisoblanadi. Muassasaga tumandagi 26 ta maktab birlashtirilgan. Oliy toifali mentor o'qituvchilar xalqaro baholash dasturi bo'yicha Singapur ta'lim tizimini birlashtirilgan maktab o'qituvchilariga o'rgatadi. Besh muhim tashabbus doirasidagi tadbirlarda ham maktab o'quvchilarining yutuqlari talaygina. Masalan, 11-sinf o'quvchisi Ziyadulla Sayfullayev shaxmat bo'yicha respublikada 2-o'rinni egallagan bo'lsa, 9-sinf o'quvchisi Umidjon Vladimirov sportning muaytay turi bo'yicha Tailandda o'tkazilgan jahon

championatida 2-o'rinni qo'lga kiritgan. - 31 yillik faoliyatim shu maktab bilan bog'liq, - deydi Marhabo Jabborova. - Maktab hayotining bir bo'laki. Ertalab ishga kelib, to darslar tugaguniga qadar xonamga kirmayman. Ish jarayonlari bilan tanishaman. Maktab maydoni 3 gektar bo'lib, joriy yilda "Yashil makon" loyihasi doirasida 2 mingdan ortiq mevali va manzarali daraxtlar ekdik. Bolalarni tabiat bilan do'st bo'lishga o'rgatish maqsadida maktab hovlisida qushlar uchun xona tashkil qilganmiz. Bolalar tanaffusda qushlarni tomosha qiladi, ularni oziqlantiradi. Shuningdek, bolalar uchun yo'l harakati qoidalarini o'rgatadigan maxsus sinfxona tashkil qilganmiz. O'qituvchilardan tashqari, yo'l harakati xavfsizligi xodimlari ham maktabga kelib, ushbu sinfda o'quvchilarga mashg'ulotlar o'tadi. Maktabdan o'rnak olsa arziydigan jihatlar ko'p ekan. Direktorining ijodkorligi, o'z kasbini sevishi va fidoyiligi har qadamda bilinib turibdi. Maktab jamoasini ahillikda birlashtira olgan yana bir direktor faoliyati bilan tanishdik. - Maktabimiz uncha katta emas, - deydi tumandagi 69-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori Feruza Annayeva. - Maktab 2012-yilda qurilgan bo'lib, 500 o'ringa mo'ljallangan. Dastlab maktabga boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishga kirdim. 2015-yilda o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, 2018-yildan beri maktab direktori bo'lib

# Direktor menejer bo'la oladimi?

Narpaydagi ilg'or maktablar misolida



championatida 2-o'rinni qo'lga kiritgan.

- 31 yillik faoliyatim shu maktab bilan bog'liq, - deydi Marhabo Jabborova. - Maktab hayotining bir bo'laki. Ertalab ishga kelib, to darslar tugaguniga qadar xonamga kirmayman. Ish jarayonlari bilan tanishaman. Maktab maydoni 3 gektar bo'lib, joriy yilda "Yashil makon" loyihasi doirasida 2 mingdan ortiq mevali va manzarali daraxtlar ekdik. Bolalarni tabiat bilan do'st bo'lishga o'rgatish maqsadida maktab hovlisida qushlar uchun xona tashkil qilganmiz. Bolalar tanaffusda qushlarni tomosha qiladi, ularni oziqlantiradi. Shuningdek, bolalar uchun yo'l harakati qoidalarini o'rgatadigan maxsus sinfxona tashkil qilganmiz. O'qituvchilardan tashqari, yo'l harakati xavfsizligi xodimlari ham maktabga kelib, ushbu sinfda o'quvchilarga mashg'ulotlar o'tadi. Maktabdan o'rnak olsa arziydigan jihatlar ko'p ekan. Direktorining ijodkorligi, o'z kasbini sevishi va fidoyiligi har qadamda bilinib turibdi. Maktab jamoasini ahillikda birlashtira olgan yana bir direktor faoliyati bilan tanishdik. - Maktabimiz uncha katta emas, - deydi tumandagi 69-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori Feruza Annayeva. - Maktab 2012-yilda qurilgan bo'lib, 500 o'ringa mo'ljallangan. Dastlab maktabga boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishga kirdim. 2015-yilda o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, 2018-yildan beri maktab direktori bo'lib

ishlab kelyapman. Maktabni 220 nafar o'quvchi bilan qabul qilib olgandim. Hozirgi kunga kelib, 500 nafar o'quvchimiz bor. So'nggi uch-to'rt yil ichida maktab bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish ko'rsatkichi tuman miqyosida yuqori o'rinlarda turibdi. O'tgan o'quv yilida 69 foiz bitiruvchimiz o'qishga kirdi.

Bu yil 25 nafar bitiruvchimiz bor. Ularning 16 nafarida turli fanlardan milliy va xorijiy sertifikatlar mavjud. Shuningdek, 35 nafar o'qituvchimizdan 16 nafarida fanni bilish bo'yicha sertifikat bo'lib, sertifikatga ega o'qituvchilarning barchasi 10 milliondan ortiq ish haqiga ega. Masalan, matematika fani o'qituvchisi Norqobil Botirov 15 million so'm, ingliz tili o'qituvchisi Nozima Annayeva 12 million so'm maosh oladi.

Darsdan keyin o'quvchilarga qo'shimcha darslar o'tiladi. Ular boshqa joyga repetitor izlab ketmaydi. Ingliz tili, tarix, kimyo, biologiya kabi fanlardan tajribali o'qituvchilar o'quvchilarimiz bilan shug'ullanadi. Bizga Mirbuzor, Oqtosh shahridan ham o'quvchilar kelib o'qiydi.

- Ularga yaxshi sharoit qilib berganimiz uchun o'z yashash hududiga yaqin bo'lgan maktabga ketmaydi, - deydi maktab direktori. - Yaqinda bir o'qituvchimizga shunday taklif bo'ldi, ammo o'qituvchi jamoani tashlab ketishni istamaydi. Biz jamoa bilan bayram, dam olish kunlari tez-tez sayohatlar uyushtirib turamiz. Ichki turizm bo'yicha respublikamizning go'zal shaharlari, diqqatga sazovor joylarini birgalikda borib ko'ramiz.

Tuman hokimining tashabbusi bilan maktablar har chorakda 10 ta indikator bo'yicha baholanadi. Maktabimiz birinchi chorakda ikkinchi o'rinni qo'lga kiritib, 20 million

so'mlik pul mukofoti bilan taqdirlandi. Ushbu pullarni maktab ehtiyojiga sarflab, doska, stol, stullar oldik.

Joriy yilgi rus tili va matematika fan olimpiadalarning viloyat bosqichida o'quvchimiz qatnashdi. Al-Xorazmiy olimpiadasining tuman bosqichida 8-sinf o'quvchimiz Elyor O'rinboev, 3-o'rinni oldi. "Turon maktab teatri" ko'rik-tanlovining tuman bosqichida o'quvchilarimiz jamoasi ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Maktabimizda hozircha sport zal yo'q. Nasib bo'lsa, 2028-yilgacha sport zal qurilishi rejalashtirilgan.

Tumanda eng ilg'or bo'lgan ushbu maktablarning direktorlari o'z tashabbuskorligi, jamoani jipslashtirish va tartib-intizomni talab qilishi bilan yaxshi natijalarga erishib kelmoqda. Yaqin yillarda mana shunday o'z kasbini astoydil sevadigan fidoyi maktab direktorlari ko'payadi. Sababi direktorlarni tayinlash tartibi o'zgardi.

## DIREKTORLAR QANDAY TAYINLANADI?

Bugun maktab direktorlarini deputatlar orqali tayinlash amaliyoti bekor bo'ldi. Yangi tartibga ko'ra, menejerlik sertifikatiga ega bo'lganlar direktorlikka tayinlanadi. Xo'sh, bu jarayon qanday amalga oshadi, degan savol hammani qiziqtiradi.

- Direktor bo'lish uchun Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida o'qib, menejerlik sertifikatini olib kelish kerak, - deydi tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i Zuhra Daminova. - Menejerlik sertifikatiga o'qish amaldagi maktab direktorlari uchun bepul. Direktor ushbu sertifikatni olib kelsa, maoshiga 50 foiz ustama qo'shiladi. Agar sertifikat ololmasa, unga yana bir bor imkon beriladi. Bu imkoniyatni ham boy bersa, direktor ishdan ketadi.

Agar nomzod (direktor o'rinbosari yoki o'qituvchi) menejerlik sertifikatini bo'yicha o'qimoqchi bo'lsa, buning uchun 10 million so'mga yaqin to'lovni amalga oshiradi. So'ngra Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida bir oylik kursda o'qiydi. Agar yakuniy imtihondan o'tolmasa, nomzodning to'lagan puli kuyadi.

Agar nomzod sertifikatni qo'lga kiritrsa, vakansiyadagi maktabga ariza berishi mumkin. Biroq maktabda direktorlik o'rni bo'sh bo'lsa, argos orqali menejerlik sertifikatiga ega bo'lganlar o'z nomzodini qo'yadi. Sertifikati yo'q nomzodlar argos orqali ariza topshirolmaydi. Bu jarayon inson omilidir bajariladi. So'ngra nomzod direktorlar kengashidan suhbatdan o'tishi kerak. Direktorlar kengashi viloyat bo'yicha eng ilg'or, tajribali direktorlar tomonidan tuzilgan bo'lib, ular tomonidan tanlangan nomzod direktorlik lavozimiga tayinlanadi.

Shu o'rinda aytish kerakki, menejerlik sertifikatini hamma ham ololmaydi, qancha nomzodlar puliga kuyib, sertifikat ololmasdan qaytib kelyapti. Sertifikat olib kelganlarni o'zimiz vakansiyadagi maktablarga nomzodini qo'yishga chaqiryapmiz. Hozirda bizda sakkizta maktabda direktor o'rni bo'sh turibdi.

**Xurshida ERNAZAROVA,**  
"Zarafshon"  
muxbiri.

## Xizmatlar sohasi barqaror tarmoq o'rnini mustahkamlamoqda

**Xizmatlar sohasi tadbirkorlik yo'nalishlari orasida eng barqaror va tez o'suvchi tarmoqlardan biri. O'tgan yili bu yo'nalishda viloyatda 58,9 trillion so'mlik xizmatlar ko'rsatilib, 2023-yilga nisbatan 14,1 foiz o'sish ta'minlandi. Natijada yalpi hududiy mahsulotdagi xizmatlar ulushi 1,4 foizga oshib, 44,9 foizni tashkil etdi. Aholi jon boshiga esa xizmatlar hajmi 13,8 million so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 2,6 million so'mga ko'paydi.**



Bunday natijaga erishilishida bir qator omillar sabab bo'ldi. Masalan, 2024-yilda tadbirkorlarning 18 mingdan ortiq loyihalariga 870,1 milliard so'm imtiyozli kredit ajratildi. 426 gektar yer uchastkasi auktsionga chiqarilib, 328,3 gektari sotildi. Qiymati 5,4 trillion so'mlik 855 ta yirik loyiha ishga tushirilib, 9 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi.

Misol uchun, Samarqand shahridagi "Sam Selin Textile" MChJ tomonidan qiymati 220 milliard so'mlik yirik savdo va ko'ngilochar markazi tashkil etilib, 270 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Avtomobil yo'llari bo'yida 127 milliard so'mlik 159 ta xizmat ko'rsatish loyihasi ishga tushirilib, 443 ta ish o'rni ochildi. Birgina Oqdaryoda M-37

magistral yo'li bo'yida "Laposcopic Center" MChJ tomonidan qiymati 34 milliard so'mlik tibbiy markaz ishga tushirilib, 30 ta yangi ish o'rni tashkil etildi. Tunu-kun ishlaydigan 12 ta ko'cha tashkil etilib, ulardagi 98 ta loyihada 186 ta ish o'rni yaratildi.

Joriy yilda xizmatlar hajmini 75,2 trillion so'mga yetkazib, 15,4 foiz o'sishni ta'minlash bo'yicha barcha choralar ko'riladi. Bugungi kunda viloyatda xizmatlar sohasining AT, ekoturizm, tibbiy xizmat, sohil bo'yi dam olish maskanlari, xalqaro yo'li bo'yida servis obyektlarini tashkil etish yo'nalishlari drayver sohasiga aylanib, jadal rivojlanmoqda. Joriy yilda IT-park rezidentlari soni hozirgi 141 tadan 186 taga yetka-

zilib, ulardagi xizmatlar hajmi 3 trillion so'mga yetkaziladi va o'sish sur'ati 33 foiz bo'ladi. IT-park rezidentlari bo'lgan 48 ta o'quv markazlarida 8 mingga yaqin yoshlar raqamli texnologiyalarga o'qitiladi.

Misol uchun, Samarqand shahridagi "Sam IT Global" MChJ IT-markazida sun'iy intellekt, frontend, backend, veb dizayn, Grafik dizayn, kompyuter savdonligi, kiber xavfsizlik yo'nalishida 4 ming nafar yoshlar o'qitiladi.

"Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 30 ming nafar yoshlar o'qitiladi. IT xizmatlari eksporti esa 10 million dollardan 15 million dollarga yetkaziladi.

### SAYYOHLIKNING YANGI XIZMAT YO'NALISHLARI TASHKIL ETILADI

Turizm sohasini rivojlantirish maqsadida master-reja asosida Urgut tumanining Omonqo'ton va Qoratepa mahallalarida 50 gektar hamda Samarqand tumanining Ohalik, Oqbo'yra va Mironqul mahallalarida 350 gektar maydonda yirik turizm loyihalarini amalga oshirish boshlandi.

Urgutda Omonqo'ton, Nurobodda Nurbuloq va Oqsoy, Qo'shrabotda Pantagat, Samarqand tumanida Yangijoy va Samarqand shahrida Go'ri Amir mahallalarida "Turizm qishlog'i" tashkil etiladi va 7 yo'nalishda turizm xizmatlari yo'lga qo'yiladi. Qiymati 2,1 trillion so'mlik 30 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, 3 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratiladi.

Jumladan, 1100 o'rinni 10 ta zamonaviy mehmonxonaga qurilib, mehmonxonalarining jami quvvati 20 mingga yetkaziladi. 2 ta sanatoriy va sog'lomlashtirish markazi, 3 ta yirik savdo va ko'ngilochar maskanlari va boshqa 15 ta turizm loyihasi amalga oshiriladi. Turizm xizmatlari eksporti 600 million dollarga yetkaziladi. Samarqand xalqaro aeroportida aviaqatnovlar soni haftasiga 50

tadan 120 taga yetkaziladi. Masalan, BAAning Dubay shahridagi "Flaydubai" aviakompaniyasi tomonidan dastlab haftasiga 2 marta, keyinchalik haftasiga 5 marta aviareyslar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

### TIBBIY XIZMATLAR EKSPORTI IKKI BAROBAR OSHIRILADI

Viloyatda sog'liqni saqlash sohasi ham jadal rivojlanmoqda, joriy yilda ushbu sohada 1,4 trillion so'mlik xizmatlar ko'rsatilib, 15,6 foiz o'sish ta'minlanadi. Bunda 1100 o'rinni 10 ta ko'ptarmoqli xususiy tibbiyot markazi ishga tushiriladi. Misol uchun, Samarqand shahrida "Intramed" MChJ tomonidan qiymati 120 milliard so'mlik 250 o'rinni yuqori texnologiyali tibbiyot markazi foydalanishga topshiriladi.

2024-yilda xususiy tibbiy markazlar tomonidan 8 ming xorijlik fuqaroning salomatligi tiklandi va tibbiy xizmatlar eksporti 1 million dollarni tashkil etdi. Joriy yilda 10 dan ortiq yangi turdagi tibbiyot xizmatlari yo'lga qo'yilib, tibbiyot xizmatlari eksporti ikki barobar oshiriladi.

Zarbdor tajribasi asosida qiymati 1 trillion so'mlik 49 ta drayver loyihalar amalga oshiriladi. Shu bilan birga, xalqaro yo'li bo'yida 80 ta, sohil bo'yi dam olish maskanlarida 36 ta, tunu-kun ishlaydigan ko'chalarda 166 ta hamda 60 ta boshqa xizmat ko'rsatish loyihalari amalga oshiriladi.

Prezidentimizning 2024-yil 29-noyabr-dagi qaroriga asosan Urgut, Toyloq, Samarqand, Past Darg'om tumanlari va Samarqand shahridan o'tgan Darg'om kanali bo'yida aholi sayr qiladigan dam olish maskanlari tashkil etish ishlari boshlandi. Ishni to'g'ri tashkil etish va tizimli davom ettirish uchun "maxsus direksiya" ham tashkil etildi. Ushbu direksiya orqali yerlarni auktsionda sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga kanal

bo'ylari obodonlashtiriladi, piyoda va veloyol'aklar tashkil etilib, kanal muhofaza zonasi xavfsizligi ta'minlanadi. Tashabbuskor tadbirkorlar tomonidan 100 dan ortiq savdo, ko'ngilochar va dam olish maskanlari tashkil etiladi, 1000 dan ortiq ish o'rinlari va qo'shimcha budjet tushumlari yaratiladi.

### TRANSPORT XIZMATI: 2 TA SHOHBEKAT, 10 TA YANGI YO'NALISH TASHKIL ETILADI

Transport xizmatlari hajmi 12,6 trillion so'mga yetkazilib, 14,3 foiz o'sish ta'minlanadi. Millionli shahar jamoat transportida yangi yo'nalishlar tarmog'i bo'yicha 10 ta magistral hamda 33 ta yetkazib beruvchi yo'nalishlar ishga tushiriladi. Bunda qo'shimcha 100 dona zamonaviy avtobus (shundan 50 ta elektrobust Yevropa tiklanish va taraqqiyot banking kredit mablag'lari hisobidan) olib kelinadi. Samarqand shahrida 503 ta zamonaviy avtobus BRUTTO shartnomasi asosida aholiga transport xizmati ko'rsatilishi ta'minlanib, jamoat transportlari raqamlashtiriladi va monitoring tizimiga integratsiya qilinadi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mablag'lari hisobidan 1-bosqichda 8 kilometr tramvay liniyalari quriladi va 14 dona tramvay vagonlari xarid qilinadi. Jamoat transporti qamrovi past bo'lgan hududlarda qishloqlarni tuman markazlari bilan hamda tumanlarni viloyat markazi bilan bog'lovchi 10 ta yangi jamoat transport yo'nalishlari tashkil etiladi.

Samarqand shahri tumanlari bilan tutash hududlarida 2 ta avtoshohbekat quriladi.

Umuman olganda, joriy yilda xizmatlar sohasida jami 148,3 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

**Davron RASULOV,**  
viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi shubha boshlig'i.

**Bugungi kungacha tilshunoslikka oid muammolar ustida qanchalik ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmasin, hali sohaga oid bahstlab va dolzarb masalalar yetarli topiladi.**

Jumladan, til tizimlarini ilmiy jihatdan tasniflash, o'xshash tillarning o'ziga xos xususiyatlari, qardosh bo'lmagan tillarning o'zaro farqli va o'xshash tomonlari, badiiy asarlarning chog'ishtirma va qiyosiy tahlilida uchraydigan uslubiy, tahliliy metodlar muammosi olimlarning doimiy munozara markazida bo'lib kelmoqda. Bu kabi muammoli masalalar jahon tilshunos olimlari tomonidan ilmiy qurultoylar, ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinmoqda.

## Tilshunoslikdagi dolzarb muammolar olimlar nigohida

Zamonaviy tilshunoslikda xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish bugungi kunda avvalgi vaqt mezoni bilan taqqoslanganda biroz oson, turli texnik, texnologik, metodik imkoniyatlar yuqori darajada shakllangan. Shuning uchun ham Samarqand davlat chet tillar instituti ingliz tili nazariyasi hamda ingliz tili nazariya aspektlari kafedralari jamoasi tashabbusi bilan joriy yil 25-aprel kuni "Chet tillarni o'qitishning dolzarb masalalari: muammolar, yechimlar, an'ana va innovatsiyalar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazilishi rejalashtirilmoqda.



Konferensiyada "Badiiy matnning stilistik tahlili", "Chet tillarni o'qitishda axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim

va elektron ta'lim", "Chet tillarni o'qitishda tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari, lingvistik tamoyillardan foydalanish", "Chet tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari va o'qitishdagi baholash" kabi mavzular muhokama qilinadi. Shuningdek, anjumanda zamonaviy tilshunoslikning yangi fan tarmoqlari, korpus lingvistikasi, raqamli tilshunoslik, psixolingvistik, kognitiv lingvistikaga oid ilmiy maqolalar tahlil qilinadi.

Unda Zozog'iston Respublikasining Qarag'anda universiteti, Hindistonning Jandal xalqaro universiteti, Rossiya Fede-

ratsiyasining Qozon universiteti, Turkiyaning Hajal universiteti, Fransiyaning Puete universitetlarida faoliyat yuritayotgan tanqilq tilshunos olimlar ishtirok etadi.

Ilmiy-amaliy anjumanda tilshunoslar bir maqsad ostida birlashib, tilshunoslikning dolzarb masalalariga ilmiy yechim izlaydilar.

**Nilufar SULAYMONOVA,**  
**SamDChTI Ingliz tili nazariyasi kafedrasini mudiri.**  
**Lola ABDULLAYEVA,**  
**ingliz tili nazariya aspektlari kafedrasini mudiri.**

**Bugun insonlar foydali ma'lumotlardan ko'ra, yengil-yelpi kontentlarga ko'proq moyil bo'lib bormoqda. Yevropa mamlakatlarida ilk bosmaxonalar faoliyat boshlagan paytda ilmiy kishilar "Ana endi Aristotelu Suqrot asarlari qo'lma-qo'l bo'lib ketadi, ilm yoyiladi", deb o'ylashganda xalq orasida allaqanday judog'arlar haqida hikoya qiluvchi fantastik kitoblar mashhur bo'ldi. Smartfonlardan bemaqsad foydalanishni aynan shu hodisaga taqqoslasa bo'ladi.**

## Uchdan keyin kech bo'lmasin...

Farzandga e'tibor, uning tarbiyasi ona qornidaligidayoq boshlanishi kerak bo'lgan jarayon. Ayol homiladorlik davrida qanday hissiyotlar girdobida yursa, yuragi ostidagi mitti yurak ham bularni his etib turadi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish davomida inson ongi qisqa videolar, cheki ko'rinmas salbiy va ijobiy ma'lumotlar oqimidan ta'sirlanadi. Qaysidir viloyatdagi avtohalokat, yong'in va tabiiy ofatlar bayoni, qo'rqinchli ma'lumotlar bilan birga ijobiy xarakterdagi videolar bitta lentada aylanishi inson ongini jumbushga keltiradi. Natijada bular besabirlik, asabiylik va hissiy boshqaruving yo'qolishi kabi salbiy oqibatlariga olib keladi. Ona qornidagi jazzi yurak esa bu hissiyotlar virtual yoki real olamdan olinishining farqiga bormaydi va bir xil qabul qiladi. Bunday bosim hali yorug' olam yuzini ko'rmagan go'dakning asab tizimiga salbiy ta'sir etadi.

Aslida kitoblar mutolaasi, chiroyli suhbat va tabiat bilan hamnafaslik mobil quirmalaridan bemaqsad foydalanishdan ko'ra yaxshiroq. O'zi sevgan mashg'ulotlar bilan shug'ullanish yanada ma'qul.

Keyingi paytlarda alla aytgan onalarni deyarli uchratmay qo'ydik, alla aytish biz uchun an'ana emas, balki yot tushunchaga aylanib bormoqda. Yosh qizaloqlar onalarning uka-singillariga aytadigan allalarini

tinglamayapti. Oqibatda qizlar farzandga e'tibor, u bilan ko'ngil suhbatini aynan alladan boshlanishini unutib qo'yarmoqda. Vaholanki, alla bolaning ruhiy va hissiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Onaning doimiy ravishda smartfonga chalg'ishi bola bilan muloqot qilish, o'ynash yoki unga e'tibor berish vaqtining kamayishiga olib keladi. Bolalar hayotiy ko'nikmalarni atrof-muhitdan, avvalo, ota-onalaridan o'rganadi. Smartfonlar bilan o'tkazilayotgan besamar soatlar bola ongida mutlaqo normal holat, deb qabul qilinishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatayotgani, bolaning texnika inqiloblaridan haddan ortiq foydalanishi depressiya, xavotir, diqqat yetishmovchiligi va turli ruhiy zo'riqish kasalliklariga olib keladi.

Yapon yozuvchisi Masaru Ibukaning "Uchdan keyin kech" asarida ta'kidlanishicha, barcha bolalar noyob qobiliyat egasi hisoblanadi. Kattalar mashaqqat bilan egallaydigan ko'nikmalardan bolakaylar o'ynagan holatda o'zlashtiradi. Bolalarning oltin teng davrini telefon ekraniga tikilib o'tkazmang. Hammasini tushunib yetib, hayotga teran nigoh bilan nazar tashlaganingizda kechikkan bo'lishingiz mumkin.

**Mahliyo AXMATOVA,**  
**O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi.**

## Халқ хизмати йўлида ҳалок бўлганлар хотираси барҳаёт

**Ички ишлар ходими бўлиб ишлаш ўта машаққатли ва масъулиятли саналади. Бу касб эгалари эл осойишталигини таъминлаш учун туну кун бедор ва ҳушёр бўлиш керак, масъулияти эса ортингда юртинг, маҳалланг, оиланг, яқинларинг тинчлиги туради.**

1995-1997 йилларда Самарқанд вилояти ички ишлар бошқармаси бошлиғи бўлиб ишлаган чоғимда хизмат вазифасини бажараётган вақтда юрт осойишталиги, халқ хотиржамлигини ўйлаб, жиноий унсурларга қарши кураш жараёнларида мардлик ва жасорат кўрсатган ходимлар асосий эътиборим марказида бўлган. Бундай фидойи сафдошларим мен учун қаҳрамон саналган. Чунки улар Ватан учун, халқ учун жонларини фидо қилган. Шунинг учун хизмат вазифасини ўташ жараёнида қаҳрамонларча ҳалок бўлган ходимларнинг хотирасини абадийлаштиришга киришганман.

Жумладан, 1960-1995 йиллар давомида хиз-



матини ўтаётган вақтда қаҳрамонларча ҳалок бўлган 62 нафар ички ишлар ходимининг нафақат исм-шарифи, унвони, мансаб даражаси, хизмат қилган ички ишлар идораси, дафн этилган қабристон ва қабрларини аниқлаб, вилоят ички ишлар бошқармасининг биноси олдида "Хотира мажмуаси"ни ташкил этганмиз. Улар дафн этилган қабр ва қабристонлардан олиб келинган tupроқ "Хотира мажмуаси" пойдағи муштарак қабрга қўйилган. Ушбу ёдгорлик 1996 йилнинг август ойида тантанали равишда очилган.

Халқ хизмати йўлида шаҳид кетганлар номи мангуликка дахлдор. "Хотира мажмуаси"да китоб

Хотира – абадий...

каби икки очик саҳифа – баландлиги тахминан 8 метр келадиган деворларда хизмат чоғида ҳалок бўлган ички ишлар идоралари ходимларининг номлари алоҳида мармар тахтачаларга муҳрланди. Ёдгорлик атрофига 62 туп арча ниҳоллари эҳдик.

Бу маскан 1996 йилнинг август ойидан бошлаб эл осойишталиги, юрт тинчлиги учун хизмат қилишга аҳд этган, ёш ички ишлар идоралари ходимлари қасамд қабул қиладиган даргоҳга айланган. Бу ерга марҳумларнинг қариндош-уруғлари, таниш-билишлари, ҳамкасблари улар руҳига ҳурмат бажо келтириш учун келишарди.

9 май – Хотира ва қадрлаш куни арафасида мардларча ҳалок бўлган ана шу 62 нафар ички ишлар органлари ходимларининг номини эсга олишни лозим топдим. Ўз хизмат бурчини бажариш чоғида мардларча ҳалок бўлган ҳамкасбларнинг охирати обод бўлсин!

**Ураимжон АБДУҒАНИЕВ,**  
**юридик фанлари номзоди, истеъфодаги генерал-майор, 1-даражали "Меҳнат фахрийси" кўкрак нишони соҳиби.**

(Мақоланинг тўлиқ варианты ва ҳалок бўлган 62 нафар ички ишлар органлари ходимлари номларини ушбу QR-код орқали zaNews.uz сайтида ўқишингиз мумкин).



**Ўзбек тилшунослиги ривожига хисса қўшган олимларнинг кўпчилиги Самарқанд давлат университетига тахсил олган ва фаолият олиб борган. Улардан бири университетнинг ўзбек тилшунослиги кафедраси профессори, филология фанлари доктори Абдували Абдусаидовдир. Бу йил устоз ҳаёт бўлганида 68 баҳорни қаршиларди.**

А.Абдусаидов ўзининг камтарона илмий, педагогик ва жамоатчилик фаолияти билан атрофидогиларга ибрат бўлди. Олтита монография, бир юз элликка яқин илмий, ўндан ортик ўқув-услубий ишлар яратиб, ўзбек тили услубшунослиги, ўзбек тили нутқ маданияти ва нотиклик санъатига доир қимматли тадқиқотларни амалга оширди.

У 1957 йил Қўдарё туманининг Қирқдархон қишлоғида таваллуд топди. Мақтабда ўқиб юрган пайтларида-ёқ она тилига, адабиётга, халқ оғзаки ижодига, сўзларнинг ранг-баранг ва

## Тил тараққиётининг жонкуяри эди

сержило маъно ифодалашига қизиқди. Ўзбек тилининг қонун-қоидалари, ўзига хос хусусиятларини ўрганишга бўлган иштиёқ уни Самарқанд давлат университетининг ўзбек ва тожик филологияси факультетига етаклади. Университетда академиклар В.Абдуллаев, Б.Валихўжаев, профессорлар Ҳ.Бердиёров, С.Мирзаев, Н.Шукуров, Р.Қўнғуров, Р.Орзибеков, Ж.Ҳожиматов, Н.Ражабов, Ш.Холматов, Р.Муқимов каби устозлардан таълим олди, уларнинг эътиборига тугди.

Университетни аъло баҳоларга тугатиб, ўзи ўқиган мактабга ўқитувчи бўлиб ишга борди. Ўқувчиларга она тили, адабиёт фанларидан таълим берди. Тезда мактаб педагогик жамоасининг эътирофини, ўқувчиларнинг меҳрини қозонди.

Қалбини илм олиш истаги тарк этмаган ёш мутахассис 1982 йил Самарқанд давлат университетига қайтиб, тахрир-нашриёт бўлимида муҳаррир, бўлим мудири вазибаларида фаолият юрпти. Меҳнат фаолияти билан бирга аспирантурада тахсил олди ва профессор Ҳ.Дониёров раҳбарлигида "Газета тили ва адабий меъёр" мавзусида ном-



зодлик диссертациясини ёқлади. Университет раҳбарияти унинг ташкилотчилик ва илмий қобилиятини инобатга олиб, университет Илмий кенгашининг котиби этиб тайинлади.

А.Абдусаидов ушбу масъулиятли лавозимда 1996-1999 йиллар давомида муваффақиятли ишлади. 1999 йилдан 2004 йилгача Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг Самарқанд бўлимида бош илмий котиб ва филиал директорининг илмий ишлар бўйича ўринбосари лавозимларида меҳнат қилди. 2005 йилда Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институтида "Газета жанрларининг

тил хусусиятлари" мавзусида докторлик диссертациясини муваффақиятли ёқлаб, филология фанлари доктори илмий даражасига эга бўлди.

Университет раҳбарияти А.Абдусаидовнинг талабчанлик ва раҳбарлик қобилиятини инобатга олиб, уни ўзбек филологияси факультети декани, ўзбек тилшунослиги кафедраси мудири лавозимларига тайинлади. У 2004-2014 йилларда нафақат университетда, балки Ўзбекистон Республикаси Парламентининг тил ва маданият масалалари бўйича эксперти сифатида ҳам фаолият кўрсатди.

Олим 1982 йилдан умрининг охиригача ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари бўйича илмий тадқиқотлар олиб бориш билан бир қаторда, ўзбек филологияси факультети талабаларига ўзбек тилшунослигининг турли соҳаларидан дарс берди. Тажрибали педагог, моҳир ўқитувчи ва ташаббускор раҳбар сифатида меҳнат қилди, элга танилди.

Домла моҳир педагог, тажрибали мураббий, талабчан устоз эди. Бугун Абдували Абдусаидовнинг илмий фаолиятини унинг иқтидорли шоғирдлари, солиҳ фарзандлари давом эттирмоқда. Тилшуно олимнинг порлок сиймоси қалбларимизда яшайди.

**Мардон БУЗРУКОВ,**  
**меҳнат фахрийси.**

РЕКЛАМА, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahridagi "SAMARQAND BOTANIKA BOG'I" mas'uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 200714957) o'zining barcha huquq va majburiyatlari (aktiv va passivlari) bilan uning huquqiy vorisi hisoblangan "EL-INVEST SAMARKAND" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga (STIR: 310114872) qo'shilmoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgan kundan boshlab, bir oy davomida qabul qilinadi.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 36-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirona notarial idorasida marhum Axmedjanova Nargiza Shavkatovnaga (2022-yil 13-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Xamidov Xodjibaxron Komilovichga (2024-yil 21-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasida marhum Shaxmirzayeva Mavlyudaga (2024-yil 15-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Tajiyev Suyundik Sherbayevichga (2024-yil 6-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Narziyev Keldiyarga (2024-yil 13-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.**

## "JOMBOY DON MAHSULOTLARI" AJ AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

**"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 78-moddasiga:**

- jamiyat kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum jamiyat ustavida belgilanishi, biroq u jamiyat kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining yetmish besh foizidan kam bo'lmasligi;

- kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay tuzilishi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jamiyatning 2025-yil 26-aprelga belgilangan aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishi kuzatuv kengashining kvorumini yig'ilmaganligi sababli boshqa muddatga qoldirilishini va yangi umumiy yig'ilish sanasi va kun tartibi bo'yicha qo'shimcha ravishda ma'lumot berishimizni ma'lum qilamiz.

**JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.**

### ER UCHASTKASI SOTILADI

Samarqand shahri O'zbek kenti mahallasi, Yangi obod ko'chasida joylashgan 10 so-tixli yer uchastkasi (1 xona va hammom mavjud) sotiladi.

**Telefonlar:**  
**+99891-555-72-17,**  
**+99899-137-54-33.**

### BEKOR QILINADI

Samarqand viloyat adliya boshqarmasidan 2013-yil 4-fevralda ro'yxatdan o'tkazilgan Nurobod tuman fermerlar kengashining (STIR: 207172228) ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomasining asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

\*\*\*

Samarqand shahridagi "ARX-IDEA-LOYIHA" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 308728219) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



## Havo isiyapti, ehtiyot bo'ling!

**Bozorlarda mevalar paydo bo'ldi. Barchamiz bu mahsulotlarni xarid qilib, farzandlarimizga ulashgimiz keladi. Afsuski, ba'zida bu mahsulotlarni iste'mol qilishda qoidalariga rioya qilmasligimiz yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.**

O'lkamizda yoz fasli boshlanishi bilan aholi, ayniqsa, bolalar orasida o'tkir ichak infeksiyalari bilan kasallanish ko'payadi. Mazkur xastalik bugungi kunda yuqumli kasalliklar orasida ko'p uchramoqda. Kasallik oqibatida dunyoda har yili 5 millionga yaqin bola hayotdan bevaqt ko'z yumadi.

Havo haroratining ko'tarilishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlariga tushgan mikroorganizmlar tez ko'payadi, bunday mahsulotlarni iste'mol qilish esa o'tkir ichak infeksiyalari rivojlanishiga olib keladi. O'tkir ichak infeksiyalari diareya, ya'ni ichning suyuq ketishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish, tana haroratining ko'tarilishi, qorin va mushaklarda og'riq, ishtahaning yo'qolishi kabi belgilar bilan kechadi. O'tkir ichak infeksiyalari asosan suv va noto'g'ri saqlangan oziq-ovqat mahsulotlari, iflos qo'l, yuvilmagan sabzavot va mevalar orqali yuqadi. Kasallikning kelib chiqishiga asosan gigiena qoidalariga rioya qilmaslik, ariq, hovuz va quduqlarning suvlari, yuvilmagan sabzavot va mevalar, sifati buzilgan taom va yeguliklarni iste'mol qilish sabab bo'ladi.

Shu bilan birga, yoz faslida pashshalarning ko'payishi natijasida bu kasalliklar tarqalishi yanayam ortadi.

Bemorlarda kasallikning yashirin davri ikki soatdan ikki kungacha davom etadi. Yashirin davri o'tgandan so'ng tana haroratining ko'tarilishi, qorin og'rish, ko'ngil aynishi, qusish, ich ketishi, holsizlik kabi alomatlar paydo bo'ladi. Kasallik organizmga tushgan mikroorganizmlar xususiyatiga qarab, yengil, o'rtacha og'ir va og'ir kechishi mumkin. O'tkir ichak infeksiyalarining asosiy asorati va xavfi — bu tez-tez, suyuq ich ketish, qusish sababli yuzaga keluvchi suvsizlanishdir. Ayniqsa, yosh bolalar organizmi suvsizlanishga chidamsiz bo'lib, hattoki og'ir darajalarida o'lim holatiga olib kelishi mumkin. Kasallik belgilari paydo bo'lganda darhol shifokorga murojaat qilish zarur.

**Durdona RAHIMOVA,**  
tadqiqotchi.

Shifokor ogohlantiradi



**Turli xil jismlarning "ta'mini" tatib ko'rish bola faol rivojlanishining tabiiy qismi hisoblanishi barchamizga ma'lum. Afsuski, bunday qiziqonlik bola salomatligi uchun xavflidir. Gap shundaki, og'izga tushgan yot jismni tasodifan yutib yuborishi bolaning salomatligi va hayoti uchun xavf tug'diradi.**

Bunday holat bolaning 6 oylikdan 3 yoshgacha bo'lgan davrida ko'p uchraydi. Chunki bu paytda u tashqi dunyoni faol o'rganayotgan bo'ladi. Shu sababli mayda bo'linadigan qismlarga ega o'yinchoqlarga "3 yoshdan kichik bolalarga mo'ljallanmagan" deb yozilgan belgi qo'yiladi. Biroq bunday xavfdan katta yosh-

## SOG'LOM OILA — JAMIYAT USTUNI

"Zarafshon"ning  
maxsus sahifasi



Kitob tufayli  
o'z kasbimni  
topdim. Siz-chi, kitob  
o'qib, nimalarga  
erishdingiz, o'ylab  
ko'ring-chi?

## XXI asr epidemiya



**Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti qandli diabetni shunday nomlagan.**

Xalqaro diabet federatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda qandli diabet bilan og'riqlarning soni dunyo miqyosida 537 million nafarni tashkil etgan. Hozirgi kunda esa bu ko'rsatkich 800 millionga yaqinlashgan bo'lib, jahon aholisining taxminan 9,88 foizini tashkil etadi. Agar vaziyat shu sur'atda davom etsa, 2030-yilga kelib, qandli diabet dunyo miqyosida o'lim sabablari orasida yettinchi o'rinni egallashi mumkin.

Mamlakatimizda ham qandli diabet bilan bog'liq muammo dolzarb bo'lib qolmoqda. 2022-yilda 20-79 yoshli aholi orasida 812900 nafar kishi ushbu xastalikka duchor bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, ularning soni 1501900 nafargacha oshgan. Bu

esa so'nggi ikki yil ichida kasallik tarqalishi 1,85 martaga ko'payganini ko'rsatadi. Qandli diabet Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan nazoratga olingan yagona yuqumli bo'lmagan kasallik hisoblanadi. Bu esa uning jiddiy tibbiy va ijtimoiy muammo ekanligini ko'rsatadi.

Sog'lom odam qoni tarkibida qandning normal darajasi 3,9-5,5 mmol/l oralig'ida bo'ladi. Agar qand miqdori ushbu me'yordan oshsa, bu qandli diabetga moyillikning belgisi bo'lishi mumkin. Qandli diabetning ikki asosiy turi mavjud. Birinchisi asosan bolalarda uchraydi va genetik tug'ma kasallik hisoblanadi. Bu oshqozonosti bezining yaxshi ishlamasligi tufayli insulin moddasi yetishmasligidan kelib chiqadi va uni tashqaridan yetkazib berishga zarurat tug'iladi. Qandli diabetga chalinganlarning faqat 10 foizi

Sog'lom hayotni tanlang



1-tur diabetga egadir. Bu kasallik odatda 20 yoshgacha bo'lgan shaxslarda rivojlanadi. Ilm-fan hozirga qadar birinchi tur diabetning oldini olish usullarini aniqlashtirmagan.

Ikkinchi turdagi qandli diabetda insulin ajralib chiqadi, lekin u organizmning ehtiyojarini qondirish uchun yetarli bo'lmaydi. Kasallik juda sekin rivojlanadi va uning kursi yengildir. Ikkinchi turdagi diabet ko'pincha semirib ketgan odamlarda kuzatiladi. Agar kasallik o'z vaqtida aniqlansa, uni dori-darmonlarsiz to'xtatish mumkin. Qandli diabetning oldini olish ushbu xavfli kasallikning rivojlanish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Kasallikning rivojlanishiga moyil bo'lgan asosiy omil — bu irsiyat. Agar yaqin qarindoshlardan biri qandli diabet bilan og'riq bo'lsa, kasallikning rivojlanish xavfi yuqori bo'ladi. Ikkinchi sababi semirishdir. Ortiqcha tana vazni va yetarlicha katta miqdordagi yog' to'qimalari hisobiga tananing insulina sezgirliги pasayadi, bu kasallikning rivojlanishini osonlashtiradi.

Qandli diabet doimiy stress tufayli ham paydo bo'lishi mumkin. Gap shundaki, asabiy qo'zg'alish holati qonga katekolaminlar va glyukokortikoidlarning ko'payishi bilan birga keladi, bu diabetga olib kelishi mumkin.

Qandli diabetning oldini olish uchun oshqozonosti bezini zo'rqiqtirmaslik, ratsioningizdan shakar va shakarli mahsulotlarni (pechene, gazli ichimliklar) kamaytirishingiz yoki butunlay chiqarib tashlashingiz kerak.

Ratsionning asosi murakkab uglevodlar va o'simlik tolasini o'z ichiga olgan ovqatlar bo'lishi lozim. Umuman olganda, parhez shunday bo'lishi kerak: 60 foiz murakkab uglevodlar, 20 foiz yog'lar (50-70 foiz o'simlik moylari bo'lishi kerak), 20 foiz oqsillar. Parranda go'shti, past kaloriyalı baliq, sabzavotlar va shakarsiz sharbatlarga ustunlik berish kerak. Makaron va un mahsulotlarini, achchiq, issiq va dudlangan ovqatlarni istemol qilishni cheklash kerak.

Kundalik jismoniy faollik ham muhim ahamiyatga ega. Har kuni jismoniy mashqlar uchun kamida yarim soat vaqt sarflansa, samarali bo'ladi. Jismoniy mashqlar metabolik jarayonlarga foydali ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida yog'larning parchalanishi kuchayadi, qonning yog' tarkibi yaxshilanadi va tana vazni sezilarli darajada kamayadi. Qandli diabetning oldini olish uchun muntazam ravishda piyoda, velosipedda yurish, suzish va boshqa sport turlari bilan shug'ullanish lozim.

Psixoeemotsional stresslar darajasini pasaytirish qandli diabetning profilaktikasining muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Doimiy stress holati uglevodlar almashinuvining buzilishiga va diabet rivojlanishiga turtki berishi mumkin. Shu bois, emotsional barqarorlikni ta'minlash, stress omillarini aniqlash va ulardan saqlanish tavsiya etiladi.

**Guli GAPPAROVA,**  
SamDTU umumiy gigiyena va ekologiya kafedrası assistenti.

## Bolangizning og'zida nima bor?

dagi bolalar ham himoyalangan. Afsuski, ko'p hollarda ota-onalarning e'tiborsizligi sabab shu yoshdagi bolalarni qiyin ahvolda qoldirib, vrachga murojaat etishadi. Bu esa bolaga ham, ota-onalarning o'zlariga ham ko'plab ovoragarchilik va qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Bola biror jismni yutib yuborsa, yo'tal, nafas olish qiyinlashuvi, bo'g'itish eng xavfli belgilar hisoblanadi. Bunday vaziyatda darhol vrachga murojaat qilish lozim.

Asosiy tavsiyalar:

- bolaga yirik va mayda qismlari bo'lmagan o'yinchoqlarni olib bering!
- o'yinchoqdagi mayda qismlarning mustahkamligini kuzatib boring!
- bolaning o'zini yolg'iz qoldirmang!

- doimo u qo'lga nimalarni olayotganiga, nima bilan o'ynayotganiga e'tibor bering!

- batareya, magnit, gidrogelli shariklar, dorilar, kimyoviy moddalar, o'tkir uchli buyumlarni yutib yuborishning xavfliligini esdan chiqarmang!



Ota-onalar bola organizmiga yot jismlar tushib qolishining oldini olish uchun oilada barcha mayda jismlarni bolalar qo'li yetmaydigan joyga yashirib qo'yishlari lozim.

Hali tishi chiqmagan bolaga yoki 1-2 ta tishi chiqqan bolaga sabzi, go'sht bo'laki, donli mahsulotlar yoki boshqa, chaynash talab qilinadigan qattiq jismlarni bermang!

O'z farzandingiz bilan birga tashqi muhitni o'rganish jarayonida qatnasha turib bolaning o'yinchoqlari yoki u qiziqish bildirayotgan va og'ziga solayotgan o'yinchoqlardan ehtiyot qiling! Bolaning salomatligi uchun xavfli bo'lgan buyumlar bilan o'ynashiga imkon bermang.

**Jamshid SHAMSIYEV,**  
Samarqand davlat tibbiyot universiteti ixtisoslashtirilgan bolalar xirurgik klinikasi bosh vrachi.



Bahor ne'matlari



## Qulupnay nima uchun foydali?

Qulupnay: A, C, P, B, E, K vitaminlari, tolalar, karotenoidlar, foliy kislotasi, magniy, sink, natriy, temir, kalsiy, mis va boshqalardan iborat.

Ushbu rezavor meva vazni yo'qotishga hissa qo'shadi, chunki u yog'larni parchalaydi va qonda qand darajasini me'yorga keltiradi. Yurak-qon tomir tizimi, immunitet, ko'rish, asab tizimi, bo'g'imlarda ijobiy ta'sir seziladi, organizmni yoshartiradi. Chunki u hujayralarning yangilanishini kuchaytiradi va qarishning oldini oladi. Qulupnay tarkibidagi foliy kislotasi kamqonlik va homiladorlikda ham foydalidir.

Katta afzalliklarga qaramay, qulupnayni iste'mol qilishda bir qator cheklavlar mavjud. Qulupnay kuchli allergendir, shu bois erta yoshdagi bolalar va allergiya bilan kasallanganlar uni yeyishdan tiylilishi kerak. Shu bilan birga, gastrit, oshqozon yarasi, sistit va buyrak kasalliklarida iste'mol qilish yaramaydi, chunki unda juda ko'p miqdordagi meva kislotalari mavjud.

Qulupnay va boshqa rezavorlar agar ularni to'g'ri tarzda iste'mol qilsangiz, albatta, foyda keltiradi.

## Dovuchcha kimga zarar?

Dovuchcha — bu hali pishmagan, g'ora holatidagi o'rik mevasi bo'lib, o'zining nordon ta'mi va foydali xususiyatlari bilan ma'lum. Ushbu bahorgi ne'matni to'g'ri iste'mol qilish sog'liq uchun foydali.

- C vitaminiga boy — immunitetni kuchaytiradi, xastalıklarga qarshi kurashadi.
- Ishtahani ochadi — nordonligi hisobiga ovqatga maylni oshiradi.
- Hazmni yaxshilaydi — me'da shartini faollashtirib, ovqat hazm bo'lishini yengillashtiradi.

Dovuchchani ko'p iste'mol qilish oshqozon og'rig'i, ich ketishi yoki tish emaliga zarar yetkazishi mumkin. Ayniqsa, bolalar, homilador ayollar va oshqozon-ichak muammosi borlar ehtiyotkor bo'lishlari lozim.



**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 583 nusxada chop etildi. Buyurtma 195. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**A.SHERXOLOV.**

**Navbatchi:**

**O'.XUDOYBERDIYEV.**


**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda